

**O'ZBEKISTONDA TARQALGAN TENTYRIINI ESCHSCHOLTZ, 1831
TRIBASI (COLEOPTERA: TENEBRIONIDAE) MUHOFAZAGA
MUHTOJ TURLARI.**

Bekchanov Norbek Xudaybergan o'g'li

Xorazm Ma'mun akademiyasi tayanch doktoranti

bekchanovnorbek12@mail.ru

Annotatsiya: O'zbekiston hududida tarqalgan Tentyriini tribasining 7 ta turi O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobining navbatdagi tashriga tavsiya qilindi.

Kalit so'zlar: Qizil kitob, muhofaza, areal, Tentyriini, O'zbekiston.

Kirish.

So'ngi yillarda O'zbekiston qora tanli qo'ng'izlari (Tenebrionidae), shu jumladan Tentyriini tribasi faunasi va sistematikasiga oid bir qancha yirik tadqiqotlar amalga oshirilmoqda (Nabozhenko et al., 2022; Bekchanov et al., 2023a; Bekchanov et al., 2023b; Bekchanov et al., 2024; Nabozhenko et al., 2024; Bekchanov et al., 2025). Ammo ularning areali, populyatsiyalar holati bo'yicha tadqiqotlar yetarli emas.

Tabiatda tabiiy ekosistemalarning barqarorligi inson jamiyati turmush tarziga ham katta tasir ko'rsatadi. Tabiatda u yoki bu turning yo'qolib ketishi ozuqa zanjirining izchilligini buzilishiga yo'ki ekosistema tarkibidagi biror komponentning yo'qolishi uning barqarorligining buzilishiga olib keladi. Shundan kelib chiqib har qanday jamiyatda turlarning muhofaza tadbirlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyida so'ngi yillarda o'tkazilgan tadqiqotlarga asosan Tentyriini tribasining muhofazaga muhtoj turlari O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga tavsiya qilinadi.


Asosiy qism.

O'zbekiston hududida 7 ta tur Tentyriini tribasining lokal tarqalgan endemik

turlari yashaydi. Turli o'ziga xos ekologik sharoitga moslashgan bu turlar bir tomondan arealining juda kichikligi, boshqa tomondan oxirgi yillarda global iqlim o'zgarishi, tabiatga antropogen ta'sirning ortishini hisobga olib, kelajakda ular sonining monitoringini yuritish va muhofaza choralari ko'rish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobining oxirgi 2019- yildagi nashriga Tenebrionidae oilasining bironta ham turi kiritilmaganligi achinarlidir. Buning sababi soha mutaxassislarining yetishmasligi va o'rganilayotgan guruh bo'yicha tadqiqotlarning yoqligidir. Lekin so'ngi yillarda olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki Tenebrionidae oilasidan bir qancha turlar faqat O'zbekiston hududida lokal yakkalangan populyatsiya shaklida uchraydi, qolaversa ularning mavjudligiga bir qancha omillar tahdid solmoqda. Bunday turlarning tabiatda yashab qolishi uchun albatta muhofaza choralari ko'rilishi kerak.

Tentyriini tribasi qanotsiz vakillarining 7 ta O'zbekiston endemik turlari lokal tarqalganligi, yakkalangan populyatsiya holida ekanligi, antropogen omillarning salbiy ta'sirlari inobatga olinib muhofaza muhtoj turlar sifatida baholanmoqda. Quyida mazkur turlarning tarqalish areali keltiriladi (1-rasm).



1-rasm. Muhofazaga muhtoj turlarning tarqalish areallari.

Bu turlar O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobining navbatdagi nashriga quyidagicha tartibda tavsiya qilinadi:

- 1) *Alcinoeta noctivaga* N.Bekchanov et Nabozhenko, sp.nov., (in prep.) turi zaif (1): (VU:R): tabiatan kamyob Amudaryo deltasi endemik turi sifatida tavsiya qilinadi;
- 2) *Alcinoeta deserta* (Bogatchev, 1963) turi zaif (1): (VU:R): tabiatan kamyob markaziy O'zbekiston endemik turi sifatida tavsiya qilinadi;
- 3) *Microdera abdullohi* N. Bekchanov et Nabozhenko, 2025 turi zaif (1): (VU:R): tabiatan kamyob Sulton- Uvays tizmasi (Qoraqalpog'iston Qoratorov) endemik turi sifatida tavsiya qilinadi;
- 4) *Microdera uzbekistanica* N. Bekchanov et Nabozhenko, 2025 turi zaif (1): (VU:R): tabiatan kamyob Quljuqtov endemik turi sifatida tavsiya qilinadi;
- 5) *Microdera ferghanensis* Kaszab, 1957 turi zaif (1): (VU:R): tabiatan kamyob Farg'ona vodiysi endemik turi sifatida tavsiya qilinadi;
- 6) *Dailognatha angrena* Nabozhenko et N. Bekchanov sp. nov. (in press) turi zaif (1): (VU:R): tabiatan kamyob shimoliy Qurama endemik turi sifatida tavsiya qilinadi;
- 7) *Colposcelis khudaybergani* Bekchanov, Nabozhenko & Bekchanova, 2023 turi zaif (1): (VU:D): qisqarib borayotgan lokal tarqalgan quyi Amudaryo tekislik endemik turi sifatida tavsiya qilinadi.

Xulosa.

Mazkur turlarning Qizil kitobga kiritilishi ularning muhofaza choralarining bir qismi hisoblanadi. Ular orasida urbanizatsiya va ayrim antropogen omillarning ta'siri ostida qolib, sonining va yashash muhitining qisqarishiga ucgrayotganlari

mavjud. Masalan: *Colposcelis khudaybergani* va *Microdera abdullohi* turlari tarqalgan hududlarda turli sement, shag'al kabi ishlab chiqarishlarning davom etayotgani ularning yashash muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shularni inobatga olib mazkur endemizm yuqori bo'lgan o'ziga xos tabiiy sharoitga ega hududlarga inson omilining kamaytirilishi maqsadga muvofiqdir.

Endemik turlar tarqalgan o'ziga xos tabiiy sharoitga ega hududlarda turlar sonining izchil monitoringini yuritish va bunday joylarni muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar ro'yxatiga kiritish tavsiya qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bekchanov N.Kh., Nabozhenko M.V. & Bekchanov Kh.U. Remarkable additions to the fauna of darkling beetles (Coleoptera: Tenebrionidae) of western Uzbekistan // Caucasian entomological Bulletin. – 2023a. – Vol. 19, № 1. – P.155–191. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8199930>
2. Bekchanov N.Kh., Nabozhenko M.V. & Bekchanova M.Kh. Review of the subgenus *Turcmenicola* Bogatchev, 1952, the genus *Colposcelis* Dejean, 1834 (Coleoptera: Tenebrionidae: Tentyriini) // Zootaxa. – 2023b. – Vol. 5375, № 4. – P. 550–564. <https://doi.org/10.11646/zootaxa.5375.4.6>
3. Bekchanov N.Kh., Nabozhenko M.V., Bekchanov M.Kh., Bekchanov Kh.U. Review of the genus *Dengitha* Reitter, 1887 (Coleoptera: Tenebrionidae: Tentyriini) // Animal Taxonomy and Ecology.- 2024.- №70(1).- P. 72–81. <https://doi.org/10.1556/1777.2024.12900>
4. Bekchanov N.Kh., Nabozhenko M.V., Bekchanov Kh.U., Bekchanova M.Kh. A review of the genus *Microdera* Eschscholtz, 1831 (Coleoptera: Tenebrionidae) of Uzbekistan // Zootaxa. – 2025. – Vol. 5590, № 4. – P. 451–480. <https://doi.org/10.11646/zootaxa.5590.4.1>
5. Nabozhenko M.V., Bekchanov N.Kh., Egorov L.V., Bekchanov Kh.U., Bekchanov M.Kh. & Rakhimov M.Sh. First data on the darkling beetle fauna (Coleoptera: Tenebrionidae) of the Hissar State Reserve, Uzbekistan //

Zoosystematica Rossica. – 2024. – Vol. 33, № 2. – P. 189–208.

<https://doi.org/10.31610/zsr/2024.33.2.189>

6. Nabozhenko M.V., Chigray I.A. & Bekchanov N.Kh. A review of the genus *Psammocryptus* (Coleoptera: Tenebrionidae: Tentyriini) // Acta entomologica Musei nationalis Pragae. – 2022. – Vol. 62, № 1. – P. 165–184.

<https://doi.org/10.37520/aemnp.2022.013>

7. Nabozhenko M.V., Bekchanov N.Kh, Bekchanov Kh.U., Bekchanova M.Kh. A review of the genus *Dailognatha* Steven, 1828 (Coleoptera: Tenebrionidae) of Central Asia// Annales de la Société entomologique de France (N.S.). – (in press)